ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YAXSHIYEVA E’TIBOR BAXTIYOROVNA

MUSTAQILLIK DAVRIDAGI PEDAGOGIKA TERMINLARI TAKOMILLASHUVI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.512.133'373.46:37.01

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Yaxshiyeva E’tibor Baxtiyorovna
Mustaqillik davridagi pedagogika terminlari takomillashuvi 3

Yakhshiyeva Etibor Bakhtiyorovna
The development of pedagogical terminology during the years of independence 25

Яхшиева Эътибор Бахтиёровна
Усовершенствование педагогической терминологии в годы независимости 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 53

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YAXSHIYEVA E’TIBOR BAXTIYOROVNA

MUSTAQILLIK DAVRIDAGI PEDAGOGIKA TERMINLARI TAKOMILLASHUVI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2425 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ronovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Yo‘ldoshev Ibrohim Jo‘rayevich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “22” 05 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (349 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “30” 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil “30” 04 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi)

H.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

S.Ashirboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida fan tili, terminologiya taraqqiyoti va tadqiqi masalalari muntazam ravishda olimlarning diqqat markazida turadi. Leksik tizimning terminologiyasi ham fan-texnologiya, ishlab chiqarish sohalari boyishi va taraqqiyoti doirasida o‘ziga xos yangilanish, o‘zgarishlarni o‘zida muntazam aks ettirib keladi. Har qanday ilm-fan va soha doirasidagi o‘zgarish hamda yangiliklar, ijtimoiy hayotdagi islohotlar sohalar terminologiyasidagi leksik-semantik, struktur o‘zgarishlarning muhim omili sanaladi. Ayni holat esa nafaqat umumterminologiya, balki milliy terminologiya, sohalar terminologiyasi masalalarining turli aspektda muntazam tadqiq qilinishini taqozo qiladi. Pedagogika terminologiyasining rivojlanishi, o‘zbek tili pedagogika terminlarining tezkor rivoji, ularning qo‘llanishi va tartibga solinishi bilan bog‘liq dolzarb muammolarning mavjudligi soha terminologiyasi yuzasidan keng tadqiqotlarni taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligida global munosabatlar, jamiyatlararo va sohalararo integratsiyalar asosida yuzaga kelayotgan yangicha munosabat hamda hodisalarni til sathida tadqiq qilish masalasi ham kun tartibining dolzarb masalalari sifatida qayd qilinmoqda. Sohalar terminologiyasi tizimida ta’lim-tarbiya, madaniy-ma’rifiy soha va tarmoqlari umumjahon terminologiyasi bilan birga milliy o‘ziga xosliklarga ham ega hisoblanadi. Ayni holat ushbu terminologik tizimlar tadqiqining ham umumiy, ham milliy aspektlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Shuning uchun dunyo tilshunosligida terminologik tizimlarni tadqiq qilish jarayonida umumiy va milliy xususiyat hamda omillarga alohida diqqat qaratilishi tabiiy. Shunga ko‘ra, sohalar terminologiyasi taraqqiyoti, o‘zlashma qatlam birliklarining milliy terminologiyada barqarorlashuvi, terminlar asosidagi ma’noviy, shakliy o‘zgarish holatlarini tahlil qilish, terminlar o‘rtasidagi ma’noviy munosabatlarni tekshirish, sohalar terminologiyasini tartibga solish, ularning leksikografik talqinlari bilan bog‘liq holatlarni zamonaviy leksikografik tamoyil va talablar darajasida tavsiflash kabi masalalar tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatning barcha sohalarida jiddiy islohot va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasi, ma’naviyat-ma’rifat masalalariga alohida e’tibor qaratilib, sohaning yanada samarali faoliyatini ta’minlashga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Ilm-fan sohalaridagi islohotlarning ijobiy natijalari ularning terminologiyasida ham aks etishi muqarrar, shu sababli fan hamda sohalardagi yangi tushuncha va hodisalar ifodalovchisi bo‘lgan terminologik birliklarning semantizatsiyasi hamda terminlar tizimining tartibga solinishi ham ilmiy yondashuvlarni taqozo qilib turadi. O‘zbek pedagogikasi ham ustuvor fan, soha sifatida o‘ziga xos takomillashuv bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Bu holat o‘zbek tili pedagogika terminologiyasi takomillashuvi jarayoni, undagi sifat va miqdor o‘zgarishlar hamda sabab-omillarini aniqlash, baholash, tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi

ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 11-martdagi PQ-139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga taalluqli barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida sohalar terminologiyasi, uning ilmiy-nazariy asoslari, terminlar shakllanishi, soha terminologiyasini tartibga solish singari masalalar yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, A.N.Baskakov, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, M.N.Volodina, V.A.Tatarinov, T.R.Kiyak, M.N.Latu, S.D.Shelov, B.N.Golovin, V.M.Leychik, D.S.Lotte, K.Kageura[1] singari olimlarning tadqiqotlarida terminologiya masalalarining turli aspektlardagi tadqiqi kuzatiladi. Ayni shunday masalalar, tilshunoslikda terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti masalalaridagi kamchilik hamda nuqsonlar, sinonimiya va uni bartaraf etish muammolari ozarbayjon, qozoq,

[1] Баскаков Н.А. К вопросу о грамматических терминах в среднеазиатских языках // Просвещение национальностей. – М., 1961. – № 2. – С. 28-39; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 3-54; Виноградов В.В. Основные этапы истории русского языка // Избранные труды. История русского литературного языка. – М., 1988. – С. 10-14; Володина М.Н. Теория терминологической номинации. – М., 1997; Татаринов В.А. Теория терминовведения: в 3 т. Т.1. Теория термина: история и современное состояние. – М.: Московский лицей, 1996; Кияк Т.Р. Лингвистические аспекты терминовведения. – Киев: УМКВО, 1989; Лату М.Н., Раздуев А.В. Терминовведение: частные вопросы развивающихся терминологий. Учебное пособие. – Пятигорск, 2011; Шелов С.Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Серия: Филологические исследования. – СПб: Филол. факультет СПБГУ, 2003; Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987; Лейчик В.М. Терминовведение: предмет, методы, структура. – М.: URSS, 2007. – С. 20-84; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: АН СССР, 1961. – С. 57; Kageura K. The Dynamics of Terminology: A descriptive theory of term formation and terminological growth. John Benjamins Publishing, 2002. – P. 91-183.

qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq kabi asosiy turkiy tillar hamda tojik tili terminologiyasida ham tadqiq etilgan.

O‘zbek terminologiyasi tomonidan ham terminologiya maxsus leksik tizim sifatida o‘rganilib, termin, terminologiya va uning lug‘atchiligi masalalari yuzasidan keng ko‘lamda e’tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, G‘.Abdurahmonov, R.Doniyorov, A.Hojiyev, H.Jamolxonov, H.Dadaboyev, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, A.Qosimov, Sh.Ko‘chimov, I.Yo‘ldoshev, S.A.Azizov, P.Nishonov, X.D.Paluanova, D.X.Kadirbekova, S.T.Mustafayeva, O.S.Ahmedov, G‘.M.Ismoilov, E.Shirinova, I.X.Islomov, G.G‘ulomova, I.Ermatov, M.Nizomova[2] kabi olimlarimiz tomonidan termin va terminologiya, o‘zbek tilining terminologik tizimi, sohalar terminologiyasi, milliy terminologiyamiz masalalari tadqiq qilib kelinmoqda. Ana shu izlanishlar samarasi o‘laroq maxsus leksika – fan tili sifatida o‘zbek terminologiyasi taraqqiyoti, milliy terminologiya masalalari, terminologik tizim va unga mansub birliklarni tartibga solish vazifalari doirasida ilmiy-nazariy, amaliy natijalar qo‘lga kiritilgan.

Pedagogika sohasining tub mohiyati shaxs va jamiyat salohiyati, ta’limi, tarbiyasi bilan baholanar ekan, sohaga oid narsa-hodisa va jarayonlarni anglatuvchi terminlar tizimining shakllanishi, taraqqiyoti, takomillashishi yuzasidan qator tadqiqotlarning jahondagi ko‘plab ilg‘or ilmiy markaz hamda oliy ta’lim muassasalari tomonidan muntazam ravishda bajarilishi bejiz emasligini ko‘rsatib turadi. Milliy pedagogikamizning keng miqyosda rivojlanishi, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar

[2]Абдураҳманов Ғ. Терминология муаммолари / “Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари” мавзусидаги биринчи Республика конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 12; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1988; Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996; Жамолхонов Ҳ.А. Ўзбек ботаника терминологиясининг таркиб топиши ва ривожланиш тарихидан. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1969; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar, 2019; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2017; Маҳкамов Н. Ўзбек тили терминологиясида синонимларининг плеонастик қўлланилиши / Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 7-20; Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982; Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил). Филол. фан. д-ри дисс... – Тошкент, 2004; Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фан. д-ри дисс... – Тошкент, 2005; Азизов С.А. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2009; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол. фан. д-ри дисс... автореф. – Тошкент, 2016; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникацияси технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2017; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Тошкент, 2017; Ахмедов О.С. Солиқ ва божхона терминларини инглиз тилидан ўзбек тилига берилиши. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2011; Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2011; Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2020; Исломов И.Х. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини. Филол. фан. д-ри дисс... – Қарши, 2021; Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2004; Эрматов И.Р. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол. фан. д-ри дисс... – Тошкент, 2022.; Nizomova M.B. Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari. Filol. fan. b. fals. dok. diss… – Termiz, 2022. – 146 b.

pedagogika terminologiyasining ham takomillashuviga jiddiy ta’sirini qayd qilish joiz. Bundan chorak asr oldin ilmiy jihatdan o‘rganilgan[3] o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi tarkibida, terminlar ma’no va shaklida, leksikografik tavsiflarida o‘tgan vaqt oralig‘ida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ilmiy jamoatchilikka ham ma’lum. Ushbu holat va jarayonlar o‘zbek tili pedagogik terminlar tizimining mustaqillik yillaridagi takomillashuv hamda taraqqiyotini, uning sabab va omillari, natijalarini zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tekshirish hamda baholashni taqozo qilishi tabiiy.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek nazariy va amaliy tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili pedagogika terminologiyasining mustaqillik yillari davridagi takomillashuvining sabab va omillari, natijalarini tekshirish, soha terminologiyasidagi miqdor va sifat jihatdan sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash, terminlarning ma’noviy, leksikografik tavsiflari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili pedagogika terminologiyasi shakllanishi, soha terminologiyasining mustaqillik yillaridagi takomillashuvi doirasidagi ijtimoiy, lingvistik sabab va omillar hamda terminologiyadagi o‘zgarish va natijalarni tekshirish, baholash;

O‘zbekiston ta’lim tizimining turli bo‘g‘inlari bilan bog‘liq terminologik o‘zgarishlarni tahlil qilish, o‘zbek tili pedagogika terminologiyasining tarkibiy tuzilishi, tasnifi, terminologik tizimdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari doirasidagi leksik-semantik xususiyat hamda munosabatlarni tavsiflash;

o‘zbek tili pedagogika terminlari tizimidagi ayrim semantik munosabatlarni, xususan, giponimik, ekvonimik munosabatlarni, shuningdek, pedagogik terminlardagi ko‘p ma’nolilik holatini tekshirish, tavsiflash;

o‘zbek tili pedagogik terminologiyasidagi yangilik hamda eskirganlik xususiyatiga ega terminlarni aniqlash va terminologik, leksikografik tavsifini berish, o‘zbek tili pedagogika terminologiyasini tartibga solish, soha terminlarining umumlingvistik va sohaviy lug‘atlarda aks etgan tavsiflarini mukammallashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida pedagogika sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi o‘zbek tili terminlari “Pedagogika: ensiklopediya” (I-III jildlar)[4], “O‘zbek pedagogik ensiklopedik so‘zligi”[5], “Pedagogik atamalar lug‘ati”[6], “Lug‘at: oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi”[7], “Ijtimoiy

[3] Усмонов Н.Ў. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994.

[4] Педагогика: энциклопедия. I жилд. Жамоа. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015; II жилд, 2015; III жилд, 2017.

[5] Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. – Тошкент: Chashma print, 2014.

[6] Педагогик атамалар луғати. Жамоа. – Тошкент, 2008.

[7] Lug‘at: oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi. Tuzuvchilar: Abdurahimov Q.A., Yusubov J.Q., Yusubov J.Q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 168 b.

pedagogika atamalar izohli lug‘ati”[8], “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”[9] kabilardan tanlandi.

Tadqiqot predmetini o‘zbek tili pedagogika terminologiyasi tarkibining mustaqillik davridagi leksik-semantik o‘zgarishlari; terminlararo giponimik, ekvonimik munosabatlar, terminologik polisemiya, yangi va eskirgan terminlarning semantik xususiyatlari, leksikografik talqini masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, komponent tahlil, lingvostatistik, qiyoslash, leksikografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili pedagogika terminologiyasining O‘zbekiston mustaqilligi yillari davomidagi takomillashuvining ijtimoiy, lingvistik sabab va omillari ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, o‘zbek tilining pedagogika terminologiyasi takomillashuvi O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida kuzatilganligi dalillangan;

pedagogika fanida xalqaro standartlarga mos ravishda o‘zbekcha terminlar yaratilganligi, ularning mahalliy ta’lim jarayonlariga mosligi o‘zbek tilining pedagogika terminlari misolida asoslangan;

terminlararo giponimik, ekvonimik munosabatlarning amal qilish holati va o‘rni, hozirgi bosqichdagi struktural xususiyatlari ochib berilgan, ayrim pedagogika terminlarining ko‘p ma’nolilik tabiati terminologik lug‘atlar asosida aniqlangan;

o‘zbek tili pedagogik terminlari tizimidagi neologizm va eskirgan terminlarning ma’noviy tarkibi hamda ularning umumfilologik va maxsus lug‘atlarda berilish holatlari bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlangan, shuningdek, o‘zbek tili pedagogik terminlarini unifikatsiya qilish usullari, soha terminlarining leksikografik talqini va tavsifi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili terminologiyasining taraqqiyoti, zamonaviy masalalari yuzasidan yaratiladigan ilmiy, uslubiy manbalarni boyitishga hissa qo‘shadi;

pedagogikaga oid terminlar tizimining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida takomillashishi, ular yuzasidan chiqarilgan xulosalar, natija va tavsiyalar tilshunosligimiz, milliy terminografiyamizga oid ilmiy, metodik adabiyotlar hamda lug‘atlar uchun manba, tahliliy material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishidagi ilmiy-nazariy yondashuv va qarashlarning rasmiy-ilmiy manbalardan olingani, pedagogika sohasiga mansub terminlarning terminologik va leksikografik tamoyillar doirasida tadqiq etilganligi, natija va xulosa, tavsiyalarning leksika, terminologik tizim amaliyotiga, ta’limiy jarayonga joriy etilganligi, qo‘lga kiritilgan natijalarning esa vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy ahamiyati terminologiya asoslari, terminologiya masalalari tadqiqi, terminlar tarkibining shakliy-ma’noviy o‘zgarishlari, terminlar o‘rtasida ma’noviy munosabatlarning amal qilish holati, soha terminografiyasi muammolari, soha terminlarini tartibga solish kabilar bo‘yicha nazariy xulosalar, ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-nazariy manba darajasida xizmat qilishi bilan asoslanadi.

[8] Ижтимоий педагогика атамалар изоҳли луғати. Тузувчилар: З.Қорабоева, Н.Абдусаматова. – Наманган, 2017.
[9] Педагогика фанидан изоҳли луғат. Жамоа. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek tili pedagogik terminlari tizimi, terminning ma’noviy tarkibi, o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining mustaqilligimiz yillari davridagi sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishlarini tekshirish, soha lug‘atlari uchun leksikografik materiallar va mahsulot, milliy terminologiyamiz ilmiy tadqiqi doirasida tahliliy manba sifatida qayd qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqillik yillarida o‘zbek tili pedagogika terminlarining takomillashuvi tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tili pedagogika terminologiyasining O‘zbekiston mamlakati mustaqilligi yillari davomidagi sifat va miqdor jihatdan takomillashuvining ijtimoiy, lingvistik omillari, ilmiy-nazariy asos va vositalari, O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga oid pedagogika terminlari tizimidagi yangilanishlar bilan bog‘liq masalalar tahlili hamda ularga oid ilmiy xulosalaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 07-sentyabrdagi 04/1-2320-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’limiy korpusning elektron platformasi tarkibidagi ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq tushuncha va ruknlar hamda korpus platformasiga joylashtirilgan lingvodidaktik manbalar, soha lug‘atlaridagi ta’lim-tarbiyaga oid terminlarning leksikografik tavsiflari mukammallashtirish, boyitishga xizmat qilgan;

pedagogika fanida xalqaro standartlarga mos ravishda yaratilgan o‘zbekcha terminlar, ularning mahalliy ta’lim jarayonlariga hamda terminologik talablarga muvofiqligi masalalari yuzasidan amalga oshirilgan tahlil natijalari hamda xulosalaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 07-sentyabrdagi 04/1-2319-son ma’lumotnomasi). Natijada lingvodidaktik elektron platforma uchun tanlangan ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq materiallar mazmuni, lingvodidaktik manbalarning tarkibi o‘zbek pedagogikasidagi zamonaviy talqin, tahlil hamda leksikografik tavsiflar bilan ta’minlanishiga hissa qo‘shgan;

o‘zbek tili pedagogika terminlari tizimida ko‘p ma’nolilik hodisasi, giponimik, ekvonimik munosabatlarning amal qilish holati va o‘rni, hozirgi bosqichdagi struktural xususiyatlari, ayrim pedagogika terminlarining ko‘p ma’nolilik tabiati, ularning terminologik lug‘atlarda berilishiga oid tahlil natijalari hamda xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474-raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 07-sentyabrdagi 04/1-2320-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida bajarilgan tadqiqotlarda pedagogika terminlarining to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tarzda qo‘llanish imkoniyatlari ta’minlangan;

o‘zbek tili pedagogika terminlari tizimidagi neologizm va eskirgan terminlarning ma’noviy tarkibi, ularning umumfilologik hamda maxsus lug‘atlarda berilish holatlari bilan bog‘liq kamchiliklar, shuningdek, o‘zbek tili pedagogik terminlarini unifikatsiya

qilish usullari yuzasidan amalga oshirilgan tahlil va ilmiy xulosalardan, soha terminlarining leksikografik talqini hamda tavsifi yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 07-sentyabrdagi 04/1-2319-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha vazifalari doirasida amalga oshirilgan va yaratilgan manba hamda materiallarning mazmunan boyitilishiga, lingvodidaktik materiallarda pedagogik terminlardan o‘rinli foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish e’lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 135 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“O‘zbek tili pedagogika terminologiyasining taraqqiyoti, tadqiqi masalalari”** deb nomlangan. Bobning *“Pedagogika terminologiyasi takomillashuvining davriy bosqichlari”* deb nomlangan 1.1- paragrafida o‘tgan asr so‘ngi va yangi asr boshlarida ilm-fan taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining jadal sur’atdagi rivoji, fanlar, sohalar integratsiyasi, sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar rivoji, inson kapitaliga nisbatan munosabatning o‘zgarishi kabi omillar umumleksika bilan birga terminologiya tarkibida ham jiddiy o‘zgarish va yangilanishlarni yuzaga keltirganligi, umumtil leksikasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan terminologiyani tadqiq qilish, o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining taraqqiyoti, mustaqillik yillaridagi takomillashuvi, tadqiqi masalalari tahlil qilingan.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi ming yillik tarixiy davrni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, uning monografik plandagi ilmiy tadqiqi XX asr oxirida boshlangan[10]. N.Usmonovning tadqiqotida ilk marta o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining shakllanish manbalari, pedagogik terminlarning leksik-semantik guruhlari, o‘zlashma qatlamga munosabati, pedagogik terminlarning ichki imkoniyatlar hisobiga qaror

[10] Усмонов Н.Ў. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз. дисс… автореф. – Тошкент, 1994.

topishi, yasama, qo‘shma, birikma terminlar, pedagogik terminlarni tartibga solish masalalari tadqiq qilindi. N.Usmonovning ta’kidlashicha: “... Hozirgi o‘zbek tilining pedagogikaga oid terminologik sistemasida 10 000 dan ortiq sof termin mavjud”[11]. Mazkur ma’lumot o‘tgan asrning 90-yillariga tegishli bo‘lib, ayni paytda, o‘zbek tilining pedagogik terminologiyasi miqdoran ancha ortganligi shubhasiz.

2022-yilda bajarilgan yana bir tadqiqotda[12] pedagogika sohasiga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari hamda tarjima muammolari o‘zbek va ingliz tillari misolida chog‘ishtirma aspektda tekshirilgan. O‘zbek va ingliz tillari pedagogik terminologiyasining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari, termin va atamalarning struktur-semantik xususiyatlari, pedagogik terminlarning tarjima muammolari mazkur tadqiqot predmetini tashkil qilgan.

Ta’lim-tarbiya masalalari, yosh avlodni o‘qitish, shaxs tarbiyasi tarixi insoniyat yoshi bilan teng bo‘lsa-da, “zamonaviy pedagogika fani hamda uning hozirgi ko‘rinishidagi terminologiyasi o‘zbeklar hayotida XX asr boshlaridan keyin yuzaga keldi”[13]. O‘zbek terminshunosligining taraqqiyoti va tadqiqiga munosib hissa qo‘shgan professor H.Dadaboyev tomonidan amalga oshirilgan o‘zbek terminologiyasi taraqqiyot bosqichlari[14] asosida o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi taraqqiyotini biz quyidagi to‘rt davrga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) eski turkiy til pedagogik terminologiyasi (XI-XIV); 2) eski o‘zbek adabiy tili pedagogik terminologiyasi (XV-XX asr boshi); 3) sho‘rolar davri o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi (XX asr boshidan 90-yillarigacha); 4) mustaqillik davri o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi (XX asr 90-yillaridan hozirgacha).

O‘zbek pedagogikasining taraqqiyotida XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy-madaniy evrilishlar alohida ta’sirga ega hisoblanadi. Ayniqsa, milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalari, vatanparvarlik, millatparvarlik harakatlari, faoliyati bilan millat taraqqiyotida bemisl iz qoldirgan jadidchilik harakati vakillarining xizmati, milliy pedagogikamiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘zbek pedagogikasi va terminologiyasining taraqqiyotida Abdulla Avloniy ijodi, ma’rifatparvarlik faoliyati ham alohida o‘rin egallaydi. U, jumladan, *ilmi axloq, bola tarbiyasining fani, axloq tarbiyasi, fikr tarbiyasi, yaxshi xulq, yomon xulq, fatonat, diyonat, g‘ayrat, riyozat, hilm, intizom, ibrat, iffat, zako, hifzi lison, munislik* kabi shaxs ta’lim-tarbiyasiga oid tushunchalarni ifodalovchi yuzlab terminlarning barqarorlashuvi, faollashuviga ma’rifatparvarlik faoliyati, didaktik asarlari orqali munosib hissa qo‘shgan.

Bobning *“O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi takomillashuvining ichki va tashqi omillari”* deb nomlangan 1.2-paragrafida o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi tizimi, tarkibi, takomillashuv omillari hamda tendensiyalarini tadqiq qilish zarurati doirasidagi fikr-mulohaza va tahlillar o‘rin olgan.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya sohasiga nisbatan yangicha yondashuv va nazariyalar, o‘zbek pedagogikasi yangi konseptual asoslarining rivojlantirilishi, sohadagi samarali islohotlar, milliy dastur va axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga keng hamda

[11] Усмонов Н. Ko‘rsatilgan manba. – B. 16.
[12] Nizomova M.B. Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari. Filol. fan. b. fals. dok. diss… – Termiz, 2022.
[13] Усмонов Н. Ko‘rsatilgan manba. – B. 4.
[14] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yoshlar ijodiy uyi, 2019. – B. 11.

faol tatbiqi natijasida sohaning konseptual va terminologik apparati yangilandi. “Har qanday fan yoki sohaning tez sur’atlarda rivojlanishi soha terminologiyasida yangi termin, atamalarning paydo bo‘lishi va ayrimlarining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi”[15]. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasi terminologik tizimi *kompetensiyaviy ta’lim, pedagogik deontologiya, media-ta’lim, ta’lim menejmenti, karyera markazi, konsalting mahorat, ta’lim monitoringi, kredit-modul, kampus, dual ta’lim, akadem mustaqilllik, intensiv ta’lim, masofaviy ta’lim, onlayn dars* kabi yuzlab yangi tushuncha va terminlar bilan boyidi, ayrim termin va atamalar yangi mazmunga ega bo‘ldi, ba’zi tushunchalar qatori termin hamda atamalar ham terminologiyaning nofaol qatlamidan joy oldi.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi takomillashuvining omillarini quyidagicha ikki guruhga ajratishimiz mumkin: 1) takomillashuvning ichki omili; 2) takomillashuvning tashqi omili.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi takomillashuvi ichki omili grammatik vositalardir. O‘zbek tili pedagogik terminlarining grammatik vositalar yordamida hosil qilinishida asosan *-lik, -lashtirish, -lash, -li, -viy, -chilik, -chi, -vchi* kabi so‘z yasovchi hamda *-(i)sh, -(u)v, -i* kabi shakl hosil qiluvchi morfemalar faol ishtirok etganligini kuzatish mumkin, masalan: *kompetentlik, testlashtirish, dasturlash, mustaqil izlanuvchi, guruhli (o‘qitish), mezonli (test), multimediali (dars)* kabilar.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasining takomillashuvi doirasida amalga oshirilgan kuzatuvlarimiz natijasida aniqlangan 400 ga yaqin yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi terminlarni hamda avvaldan mavjud tushunchalarning o‘zbek tili leksik birliklari vositasida yangicha nomlanishini O‘zbekiston ta’lim bo‘g‘inlari kesimida raqamlarda quyidagicha ifodalash mumkin: maktabgacha ta’lim bo‘g‘inida 69 ta; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim bo‘g‘inida 45 ta; professional ta’lim bo‘g‘inida 78 ta; oliy ta’lim bo‘g‘inida 75 ta; oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘g‘inida 24 ta, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘g‘inida 66 ta, maktabdan tashqari ta’lim bo‘g‘inida 23 ta. Qayd qilingan mazkur terminologik birliklar sohaga oid terminologik va ensiklopedik lug‘atlar, hukumatimizning sohaga tegishli rasmiy hujjatlari, pedagogika sohasiga oid darslik va adabiyotlardan o‘rin olgan.

Birinchi bobning “*O‘zbek tili pedagogika terminologiyasining tarkibiy tasnifi va tayanch terminlari semantikasi”* deb nomlangan 1.3-paragrafida o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining tarkibiy tuzilishi, undagi tayanch terminlar tavsifi masalalari tadqiq qilingan.

O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi ham ta’lim-tarbiya jarayoni va uni amalga oshirishni bevosita nazarda tutuvchi pedagogika sohasi hamda uning nazariy-amaliy masalalari, tadqiq obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Shu asosda o‘zbek tili pedagogik terminologik tizimining ideografik strukturasini quyidagicha ko‘rinishda qayd qilishni o‘rinli deb bilamiz: 1. Ta’lim nazariyasi terminlari mikrotizimi (*kompetensiyaviy ta’lim, kredit-modul, akadem mustaqillik* kabilar*)*. 2. Tarbiya nazariyasi terminlari mikrotizimi (*milliy tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash, rag‘batlantirish* v.b.). 3. Metodikaga oid terminlar mikrotizimi (*ta’lim mazmuni, ta’lim maqsadi, ta’lim metodi* v.b.). 4. Ta’lim-tarbiya jarayoni

[15]Марчук Ю.Н. Лексическая многозначность и перевод // Перевод и когнитология в XX веке: сб. статей по матер. VIII междунар. науч. теорет. конф. – М.: МГУ, 2015. – С. 25.

ishtirokchilarini nomlovchi terminlar mikrotizimi (*talaba, tyutor, mustaqil izlanuvchi* v.b.). 5. Ta’lim-tarbiya tashkiloti va muassasalarini nomlovchi terminlar mikrotizimi (*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi* v.b.). 6. Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanadigan predmetlarni nomlovchi terminlar mikrotizimi (*elektron darslik, multimediali kitob, smart doska* v.b.). Pedagogik terminologiya ideografik tarkibi ana shu oltita alohida va bir-biriga nisbatan zich munosabat hosil qilib turuvchi mikrotizim asosiga qurilgan, mazkur tasnifiy bo‘linishdagi har bir mikrotizim, o‘z navbatida, ichki guruhlarga ham bo‘linadi.

O‘zbek tili pedagogik terminlari tizimining giperonimi, dominant termini *pedagogika*dir. Shuningdek, *“pedagogik”, “ta’lim”, “tarbiya”, “didaktika”, “metodika”* kabi tayanch terminlari lisoniy qiymati, terminologik ma’nosidagi alohida belgilar ularning lingvistik va ensiklopedik tavsiflarida ham namoyon bo‘ladi. Xususan: “PEDAGOGIKA [*yun.* paidagogike < pais, paidos – bola + ago – yetaklab boraman, tarbiya qilaman]: **1.** Tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar majmuyi. **2.** Ayni shu soha (mutaxassislik) bo‘yicha o‘quv fani”[16]. Ko‘rinadiki, terminning ikki ma’nosi farqlangan. O‘zbek pedagogikasining deyarli barcha tushuncha va terminologiyasini o‘zida aks ettirgan ensiklopedik lug‘atdagi *pedagogika* termini quyidagicha izohlangan: “PEDAGOGIKA: 1) ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslarini tadqiq etuvchi fan; 2) yoshlarga ta’lim-tarbiya hamda ma’lumot berish, ularni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi o‘quv fani; 3) P. Oliy o‘quv yurtida o‘qitiladigan turkum fanlarining umumiy nomi”[17]. *Pedagogika* terminining mazkur izohiga ko‘ra, birdan ortiq tushunchani o‘zida mujassamlashtirgan, biroq ikkinchi ma’no tarkibida “yoshlarga ta’lim-tarbiya hamda ma’lumot berish” birikmasida “kattalar” so‘zi ham qayd qilinsa yoki “shaxsga ta’lim-tarbiya hamda ma’lumot berish” tarzida leksikografik izohi shakllantirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi, chunki *pedagogika* tushunchasida katta yoki kichik yosh degan farqlash belgisi emas, umuman, “shaxs ta’lim-tarbiyasi” degan mazmun-mohiyat barqarorlashib ulgurgan.

Pedagogikaning asosiy tushunchalarini ifodalovchi *tarbiya, ta’lim* terminlari ham *pedagogika* termini kabi soha terminologiyasining markaz, yadro termini mavqeyini egallaydi. *Ta’lim* tushunchasi maxsus ensiklopedik lug‘atda o‘zining mazmun-mohiyatini topgan. Ta’lim tushunchasining asosiy mazmuni “o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi o‘quv faoliyati” degan semada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Pedagogikaning bugungi kunda insonparvarlik pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, kasbiy pedagogika, klassik pedagogika, konant pedagogikasi, konduktiv pedagogika, korreksion pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, musiqiy pedagogika, mustaqillik davri pedagogikasi, pragmatik pedagogika, ijtimoiy pedagogika kabi yuzlab soha, tarmoq, bo‘lim, yo‘nalishlari mavjudligi va yangilari paydo bo‘layotganligini soha hamda uning ta’limiga oid adabiyotlar, ilmiy-uslubiy manbalar, terminologik, ensiklopedik lug‘atlar,

[16] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 702.
[17] Педагогика: энциклопедия. III жилд / Тузувчилар: жамоа. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 67.

matbuot va ijtimoiy tarmoq mediamaydoni orqali kuzatish mumkin. Bularning har biri pedagogik terminologiyaning sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishi, takomillashuvidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning II bobi **“O‘zbek tili pedagogik terminlariaro semantik munosabatlar”** deb nomlanadi. Uning *“O‘zbek tili pedagogik terminologiyasida gipero-giponimik munosabatning amal qilishi”* deb nomlangan 2.1-paragrafida pedagogik terminlar tizimida giponimik munosabat hamda uning terminlar o‘rtasidagi amal qilish holati yuzasidan fikr-mulohaza va tahlillar o‘rin olgan.

O‘zbek tilshunosligida ham terminlarning lug‘aviy birlik sifatidagi ayrim funksional semantik xususiyatlari hali to‘la tadqiqini topmagan. Terminlar tizimidagi giponimik va ekvonimik munosabatlarning yaxlit talqinini esa tadqiqotchi I.Ermatovning tilshunoslik terminlari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotida uchratamiz[18].

Til tizimining mohiyatini tashkil etuvchi asosiy munosabat sifatida baholanadigan giponimik munosabatning sistemadagi o‘rni va mavqeyi masalasi o‘zbek tilshunosligida nisbatan ko‘proq tadqiqini topgan[19]. Kuzatish va tahlillar obyekti sifatida maktabgacha ta’lim tizimiga oid tushuncha hamda terminlarni tanladik.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon”[20]ni amalga oshiruvchi ta’lim muassasasi sifatida *maktabgacha ta’lim tashkiloti* qayd qilinadi. Ushbu tizim doirasidagi asosiy tushunchalar sirasida maktabgacha ta’lim tashkiloti va uning turlari alohida o‘rin egallaydi hamda mazkur tushunchaning leksik ifodasi sifatida *maktabgacha ta’lim tashkiloti* termini soha nutqida ham faol qo‘llanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlari asosida ushbu tushunchalarni ifodalovchi terminlarning semantik munosabati quyidagicha: *maktabgacha ta’lim muassasalari guruhi* (giperonim) – *ilk rivojlanish guruhi; kichik guruh; o‘rta guruh; katta guruh; maktabga tayyorlov guruhi* (giponimlar). Tasnifdan ma’lum bo‘ladiki, giperonim terminining “guruh” semasi unga nisbatan giponim bo‘lgan barcha terminlar ma’no tarkibida qatnashib, giperonimlik mavqeyini ta’minlashga xizmat qiladi. Giponimlar tarkibidagi “guruh” semasi umumlashtiruvchi belgi sifatida, giponimlardagi “ilk”, “kichik”, “o‘rta”, “katta”, “maktabga tayyorlov” semalar farqlovchi, ya’ni har bir giponimning alohidaligini ta’minlovchi belgilar tarzida baholanadi. Shu o‘rinda ushbu terminlarning soha lug‘atlarida ham aks etmaganligini ta’kidlash, ular kabi sohaga oid tushunchalarning izohli lug‘atlardagi tavsifini yangilash, mukammallashtirish zarurligini ham qayd qilish joiz.

O‘zbek tilining pedagogik terminlar tizimida *ta’lim turlari* tushunchasi ham alohida paradigmani tashkil etgan holda o‘z tarkibidagi tushunchalarni ifodalovchi

[18]Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол. фан. д-ри дисс... – Тошкент, 2022.

[19]Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Сафарова Р.Г. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов). Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.

[20]Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори. – Тошкент, 2020. 22 декабрь, 802-сон.

terminlar o‘rtasida giponimik munosabat hosil qilgan holda tizimdan barqaror o‘rin egallaydi. Xususan: “Ta’lim turlari” mikrotizimi tarkibi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: *ta’lim* (giperonim) – *maktabgacha ta’lim va tarbiya; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta’lim* (giponimlar).

Terminlararo funksional-semantik munosabatlar tahlili orqali termin ostidagi tushunchalarning aloqadorlik qonuniyatlari ochiladi, terminlar orqali anglashiladigan tushuncha va bilimlar mazmun-mohiyati yanada aniqlik kasb etish imkoniyati ta’minlanadi.

“Pedagogik terminlar tizimidagi ekvonimik munosabat” deb nomlangan 2.2-paragrafda leksik-semantik munosabatlar sirasidagi ekvonimiya va uning semantik munosabat sifatidagi terminlararo amal qilish holati tahlilga tortilgan. Rus tilshunosligida V.Gak, Shur, F.Filin, M.Nikitin, D.Shmelev[21], o‘zbek tilshunosligida A.Berdialiyev, I.Ermatov kabi olimlarning tadqiqotlarida ekvonim, ekvonimiya tushunchalari bilan bog‘liq lingvistik hodisalar talqini va tavsifiga guvoh bo‘lamiz. A.Berdialiyev tomonidan ekvonimlar giponim, partonim, funksionimlar qatorida denotativ asosi har xil bo‘lgan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning ichki guruhiga mansub leksik-semantik hodisa sifatida talqin qilingan[22].

Ekvonimiya va ekvonim xususida turli yondashuvlar kuzatiladi, jumladan, M.V.Nikitinning talqinida bitta giperonim ostidagi giponimlar ekvonimlar, ular o‘rtasidagi semantik munosabat esa ekvonimiyadir[23]. “Qarama-qarshi ma’noli lug‘aviy birliklarni terminologik tizimda antonimlar emas, *ekvonim* lug‘aviy birliklar termini bilan nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi”[24].

Bitta giperonimga nisbatan giponim mavqeyida bo‘lgan leksemalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat ekvonimiya tarzida belgilanishi lozim bo‘ladi va *ekvonim, ekvonimiya* tushunchalari ta’rifida ana shu jihat ustuvorlik kasb etishi maqsadga muvofiq.

Pedagogika terminologiyasining tayanch, markaziy terminlaridan biri bo‘lgan *tarbiya* giperonimiga nisbatan giponim mavqeyida bo‘lgan *jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, ma’naviy tarbiya, aqliy tarbiya* kabi terminlar o‘zaro tur-tur munosabatida bo‘lib, o‘zaro semantik tenglik (o‘xshashlik, umumiylik emas) pozitsiyasiga ega, ular ayrim differensial belgi asosida farqlilik kasb etadi. Ekvonimlarning ekvonimik qatordagi o‘rni erkin, darajalanish qatoridagi kabi a’zolarning o‘rni qat’iy emas, belgilanmagan, ekvonimlar qatorning turli o‘rnida qayd qilinishi mumkin, muayyan o‘rinni (pozitsiyani) egallashi talab qilinmaydi. Masalan, yuqoridagi ekvonimik qatordagi terminlarning ushbu paradigmadagi o‘rni (pozitsiyasi) erkin, ularning o‘rin almashishi munosabat mohiyatiga ta’sir qilmaydi: *aqliy tarbiya, huquqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ma’naviy tarbiya, ekologik tarbiya* kabi. Ekvonimlar

[21] Гак В.Г. К проблеме семантической синтагматики // Проблемы структурной лингвистики – 1971. – М.: Радуга, 1972; Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974; Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания. – М.: Наука, 1982; Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1988; Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: ДомКнига, 2006.

[22] Бердиалиев А. Луғавий бирликлараро лисоний муносабатлар масаласига доир // Тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Хўжанд: Нури маърифат, 2011. – Б. 10-15.

[23] Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 94.

[24] Эрматов И. Ko‘rsatilgan manba. – B. 74.

o‘rtasida kuzatiladigan zidlik belgisi barcha ekvonimlarga xos emas. Yuqoridagi ekvonimik qatordagi a’zolar o‘rtasida ana shu kabi zidlanish kuzatilmaydi.

Ta’lim tizimi va turlari tushunchalari doirasida o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan *oliy ta’limdan keyingi ta’lim, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik* terminlariaro giponimik, ekvonimik munosabatni qayd qilish mumkin. Jins-tur munosabatida *oliy ta’limdan keyingi ta’lim* giperonim, *tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik* terminlari giponimlardir. Ekvonimik munosabatda faqat giponim terminlar ishtirok etadi va *tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik* terminlari o‘zaro ekvonimik munosabat asosida ekvonimlar hisoblanadi.

Terminlararo ekvonimlik hodisasi ham terminning terminsistemadagi o‘rnini belgilash va terminologik ma’noning sohaviy, lisoniy jihatdan tavsiflanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

II bobning 2.3-paragrafi *“O‘zbek tilining pedagogik terminologiyasida ko‘p ma’nolilik hodisasi”* deb nomlanib, unda pedagogik terminlarning ko‘p ma’noliligi yuzasidan kuzatish, tahlillar amalga oshirilgan.

Terminologik birliklarni semantik tarkibiga ko‘ra bir ma’noli va ko‘p ma’noli terminlar guruhiga ajratishning asoslari mavjud. Terminologiyaning katta miqdorini bir ma’noli terminlar tashkil qiladi, terminning tabiati ham xuddi shu holatni talab qiladi. Ayrim olimlar, terminlarning ko‘p ma’noli bo‘lishiga qarshi bo‘lsalar-da, ilmiy tushunchalarning turlicha talqin qilinishi mumkinligini qo‘llab-quvvatlaydilar[25]. D.S.Lottening ta’kidlashicha, muayyan bitta termin muayyan soha terminologiyasida bir ma’noli bo‘lishi lozim[26]. A.Hojiyev ta’kidlaganidek, “terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressiv va emotsionalikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi”[27]. V.A.Tatarinov terminologiyada monosemiyaga zid bo‘lgan polisemiya hodisasi ham mavjudligini, terminologik birlik polisemiyasi salbiy xususiyat sifatida baholanmasligini ta’kidlaydi[28].

O‘zbek tilining pedagogika terminologiyasida quyidagilar ham polisemantik terminlar sifatida qayd qilinganligi kuzatiladi: “*Avtoritar texnologiya* – 1) an’anaviy ta’lim jarayonining ifodasi bo‘lib, o‘qitish jarayonida o‘quvchi obyekt, o‘qituvchi subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatishiga asoslangan tizim; 2) o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchini bo‘ysundirish asosida boshqarish texnologiyasi. *Adabiyot o‘qitish metodikasi* – 1) adabiyot ta’limi nazariyasi hamda metodikasi bo‘yicha talabalarga muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar hosil qilishga yo‘naltirilgan o‘quv fani; 2) adabiyot o‘qitish metodikasi xususiy pedagogikaning asosiy sohasi. *Kurs* – 1) oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘quv davri, bosqichi (masalan: birinchi kurs, ikkinchi kurs va h.k.); 2) biror fan va ilm sohasining muayyan doiradagi tugallangan bayoni (masalan: ta’limning kurs tizimi). *Pedagogik ijodkorlik* – 1) ta’lim beruvchi tomonidan o‘quv-tarbiya vazifalarini yuksak sifat darajasida o‘zgacha hal etilishi; 2) ta’lim-tarbiya

[25] Чернышова Л.А. Отраслевая терминология в свете антропоцентрической парадигмы. – М.: МГОУ, 2010. – С. 104.

[26] Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочивания иноязычных терминов и терминоэлементов. – М., 1982.

[27] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 104.

[28] Татаринов В.А. Теория терминоведения: в 3 т. – Т.1: Теория термина: история и современное состояние. – М.: Московский Лицей, 1996.

amaliyoti va nazariyasining boyitilishi”[29]. Yuqorida qayd qilingan ayrim polisemantik termin ma’nolari o‘rtasidagi alohidalik yaqqol ajralib tursa (*kurs, pedagogik ijodkorlik*), alohida ma’nolar tarzida izohlangan ayrim ma’nolar o‘rtasida jiddiy farqlilik sezilmaydi (*avtoritar texnologiya, adabiyot o‘qitish metodikasi, pedagogik innovatsiya*). Bu holat esa soha lug‘atlarida ko‘p ma’noli termin sifatida berilgan terminlarning ma’nolarini umumlashtirgan holda tavsiflashni taqozo qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek tili pedagogik terminologiyasi takomillashuvi, leksikografik talqini muammolari”** deb nomlangan bo‘lib, uning *“O‘zbek tili pedagogik terminologiyasining neologizm terminlari”* deb nomlamgan 3.1-paragrafida pedagogika terminologiyasidagi neologizm terminlar yuzasidan kuzatish va tahlillar amalga oshirilgan.

Har qanday soha va uning terminologiyasi kabi o‘zbek tilining pedagogik terminlari tizimi ham doimiy o‘zgarish, takomillashuvga ega. Bu esa soha terminologiyasida ham neologizm sifatida baholanuvchi birliklarning alohida paradigmasining shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotlarda neologizm hodisasining turlicha nomlanib kelinayotgani kuzatiladi: *termin neologizm, neonim, neonominatsiya, neografizm, neosemantizm* kabilar[30].

Ta’lim-tarbiya sohasi terminologiyasida neologizm terminlarning ikki turini ajratish mumkin: 1) ilgari qo‘llanilgan, ammo hozirgi vaqtda o‘quv faoliyatida yangi ma’noda ishlatilayotgan terminlar (*talaba, qarzdorlik, qayta topshirish* v.b.); 2) ta’lim jarayonining yangi hodisalari, tushunchalari, subyektlari (*masofaviy ta’lim, onlayn ta’lim, vebinar, tyutor, kredit* va boshqalar)ni tavsiflovchi neologizm terminlar.

So‘nggi paytlarda ta’lim tizimida masofaviy ta’lim tobora keng tarqalmoqda. Ta’lim sohasi leksikasida ushbu turdagi ta’lim texnologiyalari bilan bog‘liq yangi so‘zlar paydo bo‘ldi. Jumladan, *tyutor, kredit-modul, vebinar, videomaterial, audiomatn, videodars, internet sinf, virtual ta’lim muhiti, virtual universitet, masofaviy kurs, keys stadi, keys texnologiyasi, elektron ta’lim, elektron darslik, multimedia, kouching* va boshqalar. Asosan, bu terminlar ingliz tilidan o‘zlashtirilib, ayrimlari o‘zbek tili imkoniyatlari asosida neologizm terminlar hosil qilishda faol ishtirok etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni bilan bog‘liq shaxslar nutqida qo‘llanila boshlangan *keys* neologizm terminiga alohida e’tibor qaratish lozim. *Keys* termini shakldoshlik xususiyatiga ega. Birinchi holda, *keys* (inglizcha *casye* – sumka, portfel) turli elektron axborot vositalarida o‘quv materiallari to‘plami (bosma, audio, video, elektron mahsulotlar)ni nomlaydi, ikkinchisi – talabaning mustaqil ishlashi uchun berilgan vazifani anglatadi. Demak, *videokeys, mini-keys* terminlari o‘quv video formatlarini nomlash uchun tilda paydo bo‘lgan. *Keys* termini ishtirok etgan yana boshqa yangi terminlar ham zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llanilmoqda. Masalan, *o‘yin videokeysi* (professional aktyorlar tomonidan o‘ynalgan, 15-20 daqiqa davom etadigan o‘quv vaziyatining keng ko‘lamli taqdimoti bo‘lgan videoklip), *hujjatli videokeys* (professionallar ishtirokida suratga olingan 15-20 daqiqa davom etadigan o‘quv vaziyatining keng ko‘lamli taqdimotiga ega videoklip), *mini-keys* (vaziyatni, ziddiyatni, qahramonning xarakteri kabilarni ko‘rsatadigan qisqa o‘yin epizodi, 5 daqiqagacha

[29] Mazkur terminlarning izohi “Педагогик атамалар луғати”dan olindi. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2008.
[30]Косович О.В. Неологизм и неоним. Терминологический инструментарий неологии // Вестник Брянского государственного университета, 2015. – № 1. – С. 255.

davom etadi). Bundan tashqari, *keys* termini *keys-texnologiya* juft terminning shakllanishiga ham asos bo‘lgan.

Ba’zi so‘zlar umumleksik va maxsus leksika tarkibida mustahkam o‘rnashgan bo‘lsa, ayrimlari o‘zbek tilidan barqaror o‘rin egallashning ilk bosqichida deyish mumkin. Ulardan *masofaviy ta’lim, repetitor, abituriyent, test, portfolio, vebinar* kabi terminlar foydalanishning yuqori chastotasida bo‘lsa, *tyutor, keys, keys-stadi, ta’lim kampusi, kouching* kabi neologizm terminlar o‘zlashishning dastlabki bosqichida bo‘lib, qo‘llanish chastotasi past birliklar sanaladi.

Ta’lim sohasiga yangi ta’lim texnologiyalari va usullarini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni keng tatbiq etish, o‘qitishning innovatsion turlari va ta’lim mazmunini (multimedia kompleksi) ishlab chiqish kabilar ham o‘zbek pedagogik terminologiyasining neologizm terminlar bilan boyishiga xizmat qilmoqda. Qayd qilinayotgan neologizm terminlarning aksariyati raqamli, elektron, masofaviy, muammoli ta’lim sohasi bilan bog‘liq hisoblanadi.

III bobning *“Pedagogik terminlar tizimida arxaiklashish hodisasi tavsifi”* deb nomlangan 3.2-paragrafida o‘zbek tili pedagogik terminologiyasidagi eskirish hodisasiga aloqador terminlar, ular bilan bog‘liq holat va tushunchalar tahlili yoritilgan.

Tilning leksik tizimida yuzaga keladigan eskirish, yangilanish bilan bog‘liq o‘zgarishlar, leksik hodisalar, qayd qilinganidek, terminologik tizimda ham, xususan, pedagogika terminologiyasida ham kuzatiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy omillar ta’siridagi o‘zgarishlar natijasi o‘laroq mazkur terminlar qatoridagi ko‘plab terminologik birliklar eskirgan qatlamdan allaqachon o‘rin olgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da pedagogikaga oid tushunchalarni ifodalovchi bir qator leksema, terminlarning maqolasidagi izoh oldidan eskirganlikni anglatuvchi maxsus belgi (*esk.*)ni uchratamiz. Jumladan, “**SABOQ** [a. – tortishuv, musobaqa]: 1. Dars, mashg‘ulot, bilim, fan. Saboq bermoq. Saboq olmoq. 2. *esk.* Darsda (o‘quvchilarga) beriladigan vazifa, topshiriq. 3. ko‘chma Ibrat, o‘rnak, namuna bo‘ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa”; “**SABOQDOSH:** *esk.* Birga o‘qigan, saboq olgan kishi; maktabdosh”[31]. Leksikografik talqinlardan ma’lum bo‘ladiki, ta’lim-tarbiya jarayoni tushunchalarini ifodalovchi *saboq, saboqdosh* leksema-terminlarida arxaiklashish bilan bog‘liq holat mavjud. Ulardan ko‘p ma’noli birlik bo‘lgan *saboq* leksema-terminining ikkinchi ma’nosi arxaiklashgan, ayni shu termin asosida hosil bo‘lgan *saboqdosh* leksema-termini esa bir ma’noli, ushbu birlik butunlay eskirgan sanaladi. Ya’ni *saboq* leksema-terminiga nisbatan *sememik arxaizm, saboqdosh* termini esa *terminologik arxaizm* maqomida qayd qilinishi lozim.

Shuningdek, pedagogika sohasiga oid quyidagi leksema-terminlarda ham arxaiklashish bilan bog‘liq xususiyat kuzatiladi: *darsxona* (dars yoki mashg‘ulotlar o‘tiladigan xona; auditoriya), *dejur* (1 *esk.* ayn. navbatchi), *dovot* (*esk.* ayn. siyohdon), *doklad* (*esk.* 1 q. ma’ruza), *dorilmuallimin, dorulmuallimin* (*esk.* O‘qituvchilar tayyorlash bilim yurti, pedagogika instituti), *pero* (*esk.* Siyoh, tush va sh.k. bilan yozish uchun ruchka uchiga o‘rnatib ishlatiladigan yozuv-chizuv asbobi), *vojatiy* (*esk.* 1. Pioner otryadi, bolalar uyi, komsomol kabilarda otryad, drujinaning rahbari), *kurator*

[31]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 482.

(1 q. rahbar (sinf rahbari), *programma* (q. Dastur. 5. Muayyan o‘quv fani bo‘yicha olib boriladigan ta’lim (o‘qish-o‘qitish ishlari)ning qisqacha izchil bayoni; o‘quvchi o‘zlashtirishi shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuyi) kabilar.

Ushbu leksema-terminlarni ham ikki guruhga ajratish lozim bo‘ladi: 1) terminologik arxaizm (*darsxona, dorulmuallimin, dovot, pero*) va 2) sememik arxaizm (*dejur, doklad, vojatiy, kurator, programma*). Arxaiklashgan birliklar sifatida qayd qilingan leksema-terminlar hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan eskirgan birliklar hisoblanadi, ularning arxaiklashishi ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek jamiyati va tilining milliy xususiyatlariga e’tibor qaratilishi hamda jamiyat hayotining o‘zgarishi, sohalararo, fanlararo integratsiya ta’sirida o‘z o‘rnini boshqa birliklarga bo‘shatib berishi tarzida belgilanishi maqsadga muvofiq. Pedagogika sohasiga oid terminologiyadagi bu kabi o‘zgarish, hodisalar lisoniy-nolisoniy omillar bilan bevosita bog‘liq.

III bobning *“Pedagogik terminlarning leksikografik talqini va terminologiyani tartibga solish masalalari”* deb nomlangan 3.3-paragrafida o‘zbek tili pedagogik terminlarining terminologik hamda umumfilologik lug‘atlardagi leksikografik talqinlari yuzasidan kuzatish va tahlillar amalga oshirilgan.

Pedagogik terminlarning terminologik lug‘atlardagi talqini. Mustaqillik yillarida o‘zbek leksikologiyasi, leksikografiyasi sohasida jiddiy ilmiy, amaliy natijalar, yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, lug‘atchilik sohasidagi ilmiy-amaliy izlanishlar natijasi o‘laroq izohli lug‘atimiz takomillashtirildi, ko‘plab tarjima lug‘atlari, yuzlab terminologiya lug‘atlar yaratildi, mavjudlari mukammallashtirildi, lug‘atlarning yangi, zamonaviy namunalari, elektron va onlayn lug‘atlar yuzaga keldi, so‘z va terminlarning umumadabiy til hamda sohaviy leksika doirasida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganishga, fan tili doirasida termin va atamalarni tartibga solishga katta imkoniyatlar taqdim qilindi.

Pedagogik terminlar lug‘atlari ham sohaning taraqqiyoti, ommalashishi, fanning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarkibida 2000 ga yaqin ta’lim-tarbiyaga oid termin va atama izohini o‘zida jamlagan 2008-yilda nashr qilingan terminologik lug‘atda qayd qilinganidek: “1925-yildan bugungi kunga qadar respublikamizda 50 dan ortiq soha bo‘yicha 140 taga yaqin atamalar lug‘ati nashr etilgan bo‘lib, ular orasida pedagogik atamalar lug‘ati mavjud emas”[32]. Ayni holat pedagogik termin va atamalarni izohlashga bag‘ishlangan o‘zbek tilidagi ilk lug‘atlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbek tilining pedagogik terminologiyasiga aloqador lug‘atlar miqdori sanoqli bo‘lsa-da, ular o‘zbek tili pedagogik terminologiyasi takomilini muayyan darajada aks ettirib kelayotganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Pedagogik termin va atamalarning lug‘atlari bilan bog‘liq yana bir tur muammo sifatida pedagogika sohasiga tegishlilik darajasi yo‘q yoki juda kuchsiz termin hamda atamalarning lug‘atlarda berilishiga ham e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. *Abzas,*

[32]Педагогика: энциклопедия. I жилд. Жамоа. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015; II жилд, 2015; III жилд, 2017; Ўзбек педагогик энциклопедик сўзлиги. – Тошкент: Chashma print, 2014; Педагогик атамалар луғати. Жамоа. – Тошкент, 2008; Lug‘at: oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi. Tuzuvchilar: Abdurahimov Q.A., Yusubov J.Q., Yusubov J.Q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020; Ижтимоий педагогика атамалар изоҳли луғати. Тузувчилар: З.Қорабоева, Н.Абдусаматова. – Наманган, 2017; Педагогика фанидан изоҳли луғат. Жамоа. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008.

akademik (sifat), alfavit, antropologiya, apostrof, bayon, bilmoq, biologiya xonasi, bodibilding (kulturizm), genofond, gistogramma, kulliyot, kulturizm, bosma toboq, yangi tarix, ilmi maoniy, ilmi muammo, ilmi qofiya, ilmi advor, janr, yapon tili xonasi, arab tili o‘qitish metodikasi kabilarning pedagogik atama sifatida pedagogik terminlar lug‘atida qayd qilinishi ham o‘zini oqlamaydi.

Shuningdek, *kredit, kreativlik, axborotlashtirish, bilish, gimnaziya, pedagogik texnologiya, metod, usul, dunyoqarash, masofaviy ta’lim, motivatsiya* kabi ko‘plab pedagogik terminlarning leksikografik lug‘atlardagi, sohaga oid ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlardagi terminologik tavsiflanishida har xillik kuzatiladi.

Tarbiya bilan bog‘liq tushunchalarning lug‘atlarda berilishi, tavsiflanishi masalasida ham qator muammoli vaziyatlar kuzatiladi, masalan, ayrim termin va atamalar soha terminlari lug‘atlarning ayrimlarida izohlangan bo‘lsa, ba’zi lug‘atlarda aynan shu terminlar kiritilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, xalq pedagogikasining asosiy tayanch tushunchalari tarzida qayd qilingan “*parvarishlash (bolani), tarbiyalash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, o‘rgatish, odatlantirish*”[33] kabi terminlarning soha lug‘atlaridagi izohlanishiga e’tibor qaratildi. Kuzatishlarimiz davomida bugungi kunda nisbatan mukammallik darajasi yuqori deb baholanayotgan “Pedagogika: ensiklopediya”, “O‘zbek pedagogik ensiklopedik so‘zligi”da *parvarishlash, tarbiyalash, odatlantirish* kabi pedagogik jarayonning muhim jarayonlari bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar hamda ularning izohiga duch kelmadik, shuningdek, “Lug‘at: oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi”[34]da ham qayd qilingan ushbu terminlar uchramaydi.

Pedagogik terminlarning umumfilologik izohli lug‘atdagi talqini. Taraqqiyoti davomida juda katta davrni bosib o‘tgan o‘zbek lug‘atchiligining nodir namunalaridan biri bo‘lgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ham ayni shunday ahamiyat kasb etuvchi xazinadir. O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘ati tarkibida turli fan-texnika tarmoqlari va sohalar qatorida ta’lim-tarbiya sohasi masalalari doirasiga mansub ko‘plab termin hamda atamalarning berilishi ham o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, *ta’lim, tarbiya, trening, videoma’ruza, adyunktura, audiovizual, bakalavriat, axloq, gimnaziya, insoniylashtirish, iqtidorli, keys, kollej, kollokvium, litsey, magistratura, mediata’lim, modul, modullashtirish, politexnizm, ma’rifatparvarlik, mentor, odamiylik, qiziquvchanlik* kabi yuzlab termin va atamalar ma’nosi umumleksik hamda terminologik jihatdan o‘z talqini hamda tavsifiga ega bo‘lgan. Lug‘atning to‘ldirilgan, qayta nashrlari turli sohalarga oid yangi termin va atamalar bilan ham boyitilgan.

Ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da pedagogika sohasiga oidlikni bildiruvchi maxsus belgi (*ped.*) bilan ta’minlangan termin va atamalar soni oltitani (*didaktizm, logopediya, modul, portfolio, test, topik*) tashkil etgan. Aslida, bundan 10 baravar ko‘proq termin va atamalar pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiyaga oidlikni bildiruvchi maxsus leksikografik belgi bilan ta’minlanishi lozim.

---

[33] Иноятов У., Муслимов Н., Усмонбоева М., Иноғамова Д. Педагогика. Методик қўлланма. – Тошкент, 2012. – Б. 46.

[34] Lug‘at: oliy ta’lim muassasalarida foydalaniladigan asosiy tushuncha va atamalar izohi. Tuzuvchilar: Abdurahimov Q.A., Yusubov J.Q., Yusubov J.Q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

Ta’lim-tarbiya sohasining asosiy tushuncha, hodisa va jarayonlarini anglatishga xizmat qiluvchi pedagogik termin hamda atamalar, leksema-terminlarning terminologik ma’nolari ham “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “*ped.*” (“pedagogikaga oid, tegishli”) belgisi bilan qayd qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan: *key*sning 2-ma’nosi; *kollokvium*ning 1-ma’nosi; *kurator*ning 1-ma’nosi; *mediata’lim*ning ma’nosi; *odobnoma*ning har ikki ma’nosi; *politexnizm*ning ma’nosi; *pansion*ning 1-ma’nosi kabilar ana shu belgi bilan qayd qilinishi lozim bo‘ladi[35].

Izohli lug‘atda *kredit* leksemalari berilgan bo‘lib, uning ikkinchisi quyidagicha izohlangan: “**KREDIT** [*lot.* creditum – qarz < credere – ishonmoq] Foyda qaytarish sharti bilan, vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag‘lar berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi; shaxs yoki muassasaning o‘ziga tegishli pullari hisoblab qo‘yiladigan hisobraqam; qarz, nasiya, kredit; mablag‘, chiqarilgan pul”[36]. Aynan pedagogika sohasiga aloqadorlikka ishora qiluvchi terminologik ma’no ushbu o‘rinda kuzatilmaydi. Shu bois, mazkur leksemaning ikkinchi ma’nosi va uning tavsifini pedagogik lug‘atlarda berilgan *kredit* tushunchasi asosida quyidagicha tarzda aks ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: **2** *talabalarning o‘quv ishlarini hisobga olishning umumyevropacha tizimida talaba tomonidan yig‘ib boriladigan ball, o‘quv dasturi va kursni o‘zlashtirish natijasini ko‘rsatuvchi ta’limiy o‘lchov.*

O‘zbek tilining pedagogik terminlarining onlayn lug‘atini yaratish, uning ma’lumotlar bazasini doimiy tarzda yangilab borish, terminologik tizimdagi miqdor va sifat o‘zgarishlarni, termin va atamalar semantikasidagi yangilanishlarni ushbu lug‘atda tezkor aks ettirish ham ijtimoiy zarurat sifatida qayd qilinishi lozim. Ayni holat esa pedagogik terminologiya yuzasidan sohaviy va lingvistik hamkorlikdagi tadqiqotlarning muntazam tartibda amalga oshirib borilishini taqozo qiladi.

XULOSA

1. O‘zbek pedagogikasi va soha terminologiyasi taraqqiyotida XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy-madaniy evrilishlar alohida ta’sirga ega hisoblanadi. Ayniqsa, milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalari, vatanparvarlik, millatparvarlik harakatlari, faoliyati bilan millat taraqqiyotida bemisl iz qoldirgan jadidchilik harakati vakillarining xizmati, sa’y-harakatlari bilan ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratilishi, shaxs kamoloti, bilimi va ma’naviyati masalasining birinchi planga qo‘yilishi, mazkur yo‘lda fidokorlik ko‘rsatilishi natijasida ta’lim-tarbiya sohasi yuqori pog‘onaga ko‘tarildi, shu bilan birga, soha terminologiyasi ham miqdor va sifat jihatdan boyidi, ta’lim-tarbiya tizimi bilan aloqador yuzlab terminlar shakllandi.

2. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida sohaga nisbatan yangicha yondashuv hamda nazariyalar, o‘zbek pedagogikasining yangi konseptual asoslarining rivojlantirilishi, ta’lim tizimidagi samarali islohotlar, milliy dastur va axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga faol hamda keng tatbiqi natijasida sohaning konseptual va terminologik apparati yangilandi.

[35]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 2-3-4-jildlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.
[36]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 921.

3. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyot bosqichi leksik-semantik munosabatlar doirasida ekvonimik munosabatning mavjudligini ham qayd qilmoqda. Leksik birliklar o‘rtasidagi antonimiya, giponimiya, sinonimiya, graduonimiya kabi semantik munosabatlar qatorida ekvonimiya hodisasining ham o‘rni va vazifasini aniqlash, uning lisoniy munosabat sifatidagi o‘rni va xususiyatlarini terminologik tizim doirasida tekshirish, baholash leksik, leksikografik aspektda nazariy-amaliy jihatdan ahamiyatlidir. Leksik birliklar tizimidagi giponimlik va ekvonimlik bitta nuqtada o‘zaro kesishishi kuzatilsa-da, ushbu hodisalar tabiati, semantik tizimdagi o‘rni, mohiyati har birida o‘ziga xos tarzda bo‘ladi. Bitta paradigma nuqtasidagi kesishuv ularning umumiy, aloqador belgilari mavjudligidan dalolat beradi, ularning amal qilish tarzi har bir birlikdagi ko‘p qirralik bilan alohidalik kasb etadi.

4. Til birliklari orasidagi giponimiya va ekvonimiyaning o‘zaro munosabati, umumiy va farqli belgilari, o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: giponim giperonimga nisbatan semantik tobe xarakterida bo‘ladi. Ekvonimlar esa o‘z munosabatdoshlari bilan semantik tenglik munosabatida bo‘ladi; giponim va ekvonim birliklarning mazmun planida ularga nisbatan giperonim bo‘lgan birlikning sememasi sema sifatida o‘rin egallaydi. Ekvonim ma’nosi giperonimning sememasi asosida shakllanadi va shu jihatdan ekvonimik munosabatdagi birliklar semantik jihatdan o‘zaro teng bo‘ladi; giponimlik o‘rni nisbiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin, ekvonimik mavqe esa barqarordir; giponimlar o‘z giperonimi bilan iyerarxik munosabatda, ekvonimlar esa o‘zaro paradigmatik munosabatda bo‘ladi; giponimlar o‘z giperonimi o‘rnida ham qo‘llana oladi, ekvonimlar o‘zaro vazifa yoki o‘rin almashmaydi; giponimlar o‘z giperonimi bilan jins-tur munosabatini, ekvonimlar esa o‘zaro tur-tur munosabatini hosil qiladi.

5. Har qanday tilning lug‘at tarkibi boyishi va takomillashishida o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish bilan bog‘liq jarayon ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tgan asrning oxirgi va asrimiz boshlaridagi xalqaro aloqalar, dunyo miqyosidagi globallashuv, sohalararo integratsiya, ilm, fan-texnikaning tezkor taraqqiy etishi, inson kapitaliga bo‘lgan yangicha yondashuv kabilar jamiyatning deyarli barcha sohalarida ko‘plab yangi tushuncha va hodisalarni, munosabatlarni yuzaga keltirish barobarida yangi so‘z va terminlarning paydo bo‘lishida ham birlamchi omil sifatida xizmat qildi. Dunyo mamlakatlari ta’lim, tarbiya tizimidagi zamonaviy yondashuvlar, ta’lim-tarbiya jarayoniga nisbatan gumanistik munosabat, ta’lim-tarbiya sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari rivoji va sohalarga tatbiqi ta’lim-tarbiya tizimida yangi so‘z hamda terminlarning yuzaga kelish zaruratini belgilaydi.

6. O‘zbek tili pedagogik terminologiyasining mustaqillik yillaridagi takomillashuvi, terminologik qatlamning yangi birliklar bilan boyishida, asosan, ingliz tili alohida o‘rin egallamoqda, ingliz tili orqali o‘zlashtirilayotgan so‘z, terminlar faolligi kuzatilmoqda. Shunga ko‘ra, o‘zga tillardan olinayotgan leksik birliklarning o‘zbek tili leksikasi va terminologiyasidagi o‘rnini belgilash, ularning talaffuzi va imlosini tartibga solish kabi ijtimoiy-lisoniy masalalar ham dolzarblik kasb etmoqda. Hozircha o‘zbek tiliga o‘zlashtirilayotgan yangi so‘z va terminlarning aksariyati shakllanish asosiga ko‘ra manba tilning grafik hamda fonetik jihatdan o‘z shaklini saqlab qolayotganligi kuzatilmoqda.

7. O‘zbek tili pedagogik terminologiyasining yangi terminlar hisobiga boyishida O‘zbekiston ta’lim tizimiga yangi ta’lim texnologiyalari va usullarini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni keng tatbiq qilish, o‘qitishning ilg‘or, samarali innovatsion shakl hamda vositalari hamda ta’lim mazmuni (multimedia kompleksi)ni ishlab chiqish va joriy etish kabilar alohida ahamiyatga ega sanaladi. Keyingi vaqtlarda o‘zbek tili pedagogik terminlari tizimida qayd qilinayotgan yangi terminlarning asosiy qismi ta’lim jarayonini raqamlashtirish, elektron, masofaviy, muammoli, inklyuziv ta’lim kabilar bilan bog‘liqlik kasb etishi kuzatilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayoni, o‘qitishning yangi texnologiyalari, metod va shakllari ham soha terminologiyasida yangi terminologik birliklarning yuzaga kelishida muhim omil sifatida xizmat qilish barobarida pedagogika sohasidagi ayrim tushuncha hamda terminlarning arxaiklashishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

8. Pedagogik terminlar lug‘atlarida qayd qilingan *arab tili o‘qitish metodikasi, biologiya o‘qitish metodikasi, adabiyot o‘qitish metodikasi, boshlang‘ich ta’lim metodikasi, geografiya o‘qitish metodikasi, musiqa o‘qitish metodikasi* kabi deyarli barcha o‘quv predmetini o‘qitishga doir alohida tushuncha sifatida lug‘atlarda har birining alohida berilishi va izohlanishi leksikografiya tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydi.

9. Ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da pedagogika sohasiga oidlikni bildiruvchi maxsus belgi bilan ta’minlangan terminlar soni oltitani tashkil etgan. Aslida, bundan 50 baravar ko‘proq terminlar pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiyaga oidlikni bildiruvchi maxsus leksikografik belgi bilan ta’minlanishi lozim. Ta’lim-tarbiya sohasining asosiy tushuncha, hodisa va jarayonlarini anglatishga xizmat qiluvchi barcha pedagogik terminlar hamda nisbiy terminlarning terminologik ma’nolari ham “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “*ped.*” (“pedagogikaga oid, tegishli”) belgisi bilan ta’minlanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

10. O‘zbekiston mustaqilligi davrida o‘zbek pedagogikasi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan alohida fan, soha sifatida yuqori sur’atda rivojlanishda davom etmoqda, ta’lim-tarbiya sohasi, ta’lim tizimi innovatsion g‘oya va nazariyalar, zamonaviy yondashuvlar, milliy madaniyat va qadriyatlar asosida takomillashmoqda, ayni holat va jarayonlar o‘zbek tili pedagogik terminologiyasining rivojiga, boyishiga, standartlashuviga ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Ijtimoiy hayot, zamonaviy talab va ehtiyojlar o‘zbek tili pedagogika terminlarining izchil tadqiqini amalga oshirish, pedagogika terminlarining onlayn, elektron lug‘atini, terminologik korpuslarni yaratish, ularning ma’lumotlar bazasini muntazam yangilab borish, terminologik tizimdagi miqdor va sifat o‘zgarishlarni, terminlar semantikasidagi yangilanishlarni zamonaviy lug‘at namunalarida ilmiy asoslariga ega tarzda tezkor, sifatli aks ettirish, ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalana olish imkoniyatlarini ta’minlash kabi vazifalarning hal qilinishini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

SCIENTIFIC COUNCIL OF GRANTING SCIENTIFIC DEGREE DSc.03/30.12.2019. Phil.19.01 UNDER TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

YAKHSHIYEVA ETIBOR BAKHTIYOROVNA

THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TERMINOLOGY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

10.00.01 – Uzbek language

ABSTRACT OF THE DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Toshkent – 2025

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.PhD/Fil2425.

Doctoral thesis was completed at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Dissertation abstract is placed on the web site of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and educational informational portal of "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) in three languages (Uzbek, English and Russian (resume).

Scientific advisor:	**Muhamedova Saodat Khudoyberdiyevna** Doctor of Philological sciences, Professor
Official opponents:	**Abdushukurov Bakhtiyor Buronovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Yuldoshev Ibrohim Jurayevich Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Kokand State University**

The defense of the dissertation will be held on "22" 05, 2025 at 16^{00} at the meeting of the one-time Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi. Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street, 103 Tel (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

The dissertation can be found at the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered by 344). Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hajib Street, 103. Tel (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertation abstract was distributed on "30" 04 2025.

(Digital Registry note №2 on "30" 04 2025)

H.Dadaboyev
Chairman of Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

K.U.Pardayev
Secretary of Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

S.Ashirboyev
Chairman of Scientific Seminar on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract)

The relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, issues related to the language of science, the development of terminology, and their study remain consistently in the spotlight. The terminology of the lexical system regularly reflects unique innovations and changes within the framework of the enrichment and advancement of scientific, technical, and industrial fields. Changes and innovations in any scientific sector, as well as reforms in social life, are significant factors driving lexical-semantic and structural changes in terminology of industries. This situation requires the systematic investigation of not only general terminology but also national terminologies and industry terminology issues from various perspectives. The development of pedagogical terminology, the rapid evolution of Uzbek pedagogical terms, and current issues related to their usage and regulation highlight the need for extensive research in the area.

In global linguistics, the investigation of new relationships and phenomena emerging in the language area due to global interactions and intersectoral integrations is also noted as an urgent issue on the agenda. In the terminology system of various fields, educational, cultural and educational spheres and branches are considered to have national specificities along with world terminology. This highlights the necessity of studying these terminological systems from both general and national perspectives. Consequently, it is natural for world linguistics to focus specifically on both universal and national traits and factors when researching terminological systems. In this regard, the following issues have gained particular significance: the development of industry terminologies, the stabilization of borrowed elements within national terminology, the analysis of semantic and formal changes in terms, the study of semantic relationships between terms, the regulation of industry terminologies, and their lexicographic interpretations, the description of cases related to their lexicographic interpretations at the level of modern lexicographic principles and requirements.

Following Uzbekistan's attainment of independence, significant reforms and changes were implemented across all sectors of society. Particular attention was given to education, spiritual and cultural development, resulting in the adoption and practical application of normative and legal documents aimed at enhancing the effectiveness of these sectors. The positive outcomes of reforms in the fields of science and education inevitably influence their terminologies. Consequently, the semantic development of terminological units that represent new concepts and phenomena, as well as the regulation of terminological systems, requires scientific researches. Uzbek pedagogy, as a priority subject/field, is undergoing distinctive phases of development. This progression underscores the necessity of investigating the evolution of pedagogical terminology in the Uzbek language, analyzing qualitative and quantitative changes, identifying underlying causes, and evaluating the factors driving these transformations.

The outcomes of this research contribute to the implementation of tasks outlined in several key legislative acts issued by the President of the Republic of Uzbekistan and other relevant legal documents, such as: Decrees PF-4797 dated

May 13, 2016 “On the establishment of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”, PF-4958 dated February 16, 2017 “On improving the system of postgraduate education”, PF-5847 dated October 8, 2019 “On approving the concept for developing Uzbekistan's higher education system until 2030”, PF-5850 dated October 21, 2019 “On measures to significantly enhance the status and prestige of the Uzbek language as a state language”, PF-6084 dated October 20 “On further development of the Uzbek language and improvement of language policy”; resolutions PQ-2789 dated February 17, 2017 “On improving the activities of the Academy of Sciences and the management and financing of scientific research”, PQ-3907 dated August 14, 2018 “On raising the quality of education and upbringing to a new level to ensure the moral, ethical, and physical development of youth”, PQ-139 dated March 11, 2020 “On enhancing the efficiency of fundamental and applied research in Uzbek language and literature”, PQ-289 dated June 21, 2022 “On improving the quality of pedagogical education and advancing the activities of higher education institutions training pedagogical staff”.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the Republic of Uzbekistan. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the republican science and technology development “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy”.

The Level of Study of the Problem. In global linguistics, numerous scientific studies have been conducted on issues such as the terminology of various fields, its theoretical foundations, the formation of terms, and the regulation of sectoral terminologies. Researchers such as G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, M.N.Volodina, V.A.Tatarinov, T.R.Kiyak, M.N.Latu, S.D.Shelov, B.N.Golovin, V.M.Leychik, D.S.Lotte, K.Kageura and A.N.Baskakov[37] have explored different aspects of terminology. Similar issues, including deficiencies in the formation and development of terms, problems of synonymy, and methods to eliminate them, have also been studied in the terminologies of major Turkic languages such as Azerbaijani, Kazakh, Kyrgyz, Turkmen, and Karakalpak, as well as in Tajik.

Uzbek terminology has been extensively studied as a specialized lexical system, with significant research conducted on issues related to terms, terminology,

